

UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOBINI YURITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi Azimov Faxriddin Xamroyevich.

Annotatsiya: Maqolada investitsiyalarning turli turlari, ularning balansdagi aks ettirilishi, amortizatsiya va daromadlarni hisobga olish tartiblari, shuningdek, moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning me'yoriy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari uzoq muddatli investitsiyalarni boshqarish jarayonida hisobni yuritishning samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Uzoq muddatli investitsiyalar, moliyaviy hisob, amortizatsiya, moliyaviy barqarorlik, hisobot, buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

FEATURES OF ACCOUNTING FOR LONG-TERM FINANCIAL INVESTMENTS

**Independent researcher of Samarkand State University of Veterinary
Medicine, Animal Husbandry and Biotechnologies Azimov Fakhreddin
Khamroeich.**

Abstract: The article analyzes various types of investments, their reflection in the balance sheet, the procedures for accounting for depreciation and income, as well as the regulatory framework for reflection in financial statements. The research results show that the management of long-term investments plays an important role in increasing the efficiency of accounting and ensuring financial stability.

Keywords: Long-term investments, financial accounting, depreciation, financial stability, reporting, national accounting standards.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion faolligi ularning uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarini samarali boshqarish va hisobini to‘g‘ri tashkil etishga bevosita bog‘liqdir. Investitsiyalar korxona kapitalining strategik yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan shakli bo‘lib, kelgusida iqtisodiy naf keltirishni maqsad qiladi. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni jadal kechmoqda. Xususan, Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Qonun moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va shaffofligini ta‘minlashni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi IFRS 9 va IAS 28 kabi standartlar asosida tartibga solinadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar zamonaviy korxonalar faoliyatida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning hisobini yuritish moliyaviy barqarorlik va samarali boshqaruvni ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin: aksiyalar, obligatsiyalar, uzoq muddatli kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlar. Ushbu instrumentlar orasida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etib, xalqaro yondashuvga ko‘ra, ular korxona tomonidan bir yildan ortiq muddat ushlab turilishi rejalashtirilgan aktivlar sifatida talqin qilinadi hamda balansning aktivlar qismida “Uzoq muddatli investitsiyalar” bo‘limida alohida hisobvaraqlarda aks ettirilishi nazarda tutiladi. O‘zbekiston amaliyotida ham moliyaviy investitsiyalar korxona aktivlari tarkibida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi, hisobot shakllari, ularni taqdim etish muddatlari hamda tarkibiy mazmuni esa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan.

Xususan, 2024-yil 4-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan 3567-sonli hujjat bilan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari, ularning tarkibi va mazmuniga

doir Nizom tasdiqlangani, shuningdek, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans) va boshqa asosiy hisobot shakllarining ilovalar ko'rinishida belgilab berilgani korxonalarda aktivlarni, jumladan moliyaviy investitsiyalarni to'g'ri tasniflash va haqqoniy aks ettirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Amaldagi me'yoriy hujjatlar talabi bo'yicha uzoq muddatli aktivlar, jumladan moliyaviy qo'yilmalar, odatda 12 oydan ortiq muddat davomida iqtisodiy naf keltirishi va korxona tomonidan nazorat qilinishi mumkin bo'lgan resurslar sifatida tavsiflanadi. Shu bois, ularni to'g'ri hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish korxonaning moliyaviy holatini aniq baholash va kelajakdagi investitsion qarorlarni qabul qilishda muhimdir.

Bir so'z bilan ta'riflaydigan bo'lsak uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar - bu xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bir yildan ortiq muddatga boshqa tashkilotlarning ustav kapitaliga, qimmatli qog'ozlariga yoki qarz majburiyatlariga kiritilgan mablag'lardir.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi (1 yildan ortiq muddatga qilingan investitsiyalar) 0600-"Uzoq muddatli investitsiyalar" hisobvaraqlarida yuritiladi va ularni boshlang'ich qiymatda (sotib olish xarajatlari bilan) baholash, balansda esa joriy qiymat yoki amortizatsiya qilingan qiymatda aks ettirish, shuningdek, investitsiya daromadlarini (dividend/foiz) o'z vaqtida hisoblash bilan o'ziga xoslanadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobining asosiy xususiyatlari:

Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari: 0610-"Sho"ba xo'jalik jamiyatlaridagi investitsiyalar", 0620 -"Qaram xo'jalik jamiyatlaridagi investitsiyalar" va 0630-"Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar" hisobvaraqlarida olib boriladi.

Baholash usullari: Investitsiyalar boshlang'ich qiymatda kirim qilinadi. Keyinchalik, bozor qiymatiga ega bo'lgan investitsiyalar qayta baholanishi yoki qiymati pasaygan taqdirda, qiymat pasayishidan zarar hisobdan chiqarilishi mumkin.

Daromadlarni tan olish: Investitsiyalardan olingan dividendlar va foizlar daromad sifatida tan olinadi. Agar investitsiya boshqa korxona ustav kapitalidagi ulush bo'lsa, daromad dividend shaklida, obligatsiyalar bo'lsa - foiz shaklida hisoblanadi.

Balansdagi o'rni: Ular buxgalteriya balansining "Uzoq muddatli aktivlar" bo'limida aks ettiriladi.

Investitsiyadan chiqish: Sotilganda yoki qaytarilganda, investitsiyaning balans qiymati bilan sotish narxi o'rtasidagi farq moliyaviy natija (foyda yoki zarar) sifatida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 18.07.2024 yilda №3531-son bilan ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-sonli BHMS) "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish"ni tasdiqlash haqidagi buyrug'ida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi bo'yicha quyidagicha sharxlar keltirilgan. Jumladan: Uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif qilingan moliyaviy investitsiyalar buxgalteriya balansida quyidagi usullar orqali hisobga olinadi:

- xarid qiymati;

- qayta baholashni hisobga olgan qiymat bo'yicha;

- investitsiya portfeli usuli bo'yicha aniqlangan, xarid qiymati va bozor qiymatidan eng kichigi bahosi bo'yicha. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qayta baholash uchun qayta baholashni amalga oshirish davriyligini, shu jumladan uzoq muddatli investitsiyalar toifalarini aniqlash zarur.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymati pasayganda barcha uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning balans qiymati pasaytiriladi, bundan balans qiymatining vaqtincha pasayishi mustasno. Bunday pasaytirish har bir alohida moliyaviy qo'yilma bo'yicha aniqlanadi va tayyorlanadi. Uzoq muddatli investitsiyalar xarid qiymati bo'yicha hisobga olinganda, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymati qaytarib bo'lmaydigan darajada pasaygan taqdirda, bu investitsiyalarning balans qiymati har bir investitsiya bo'yicha alohida

kamaytirilishi kerak. Bunda, xatarning turlari, investitsiya qilinayotgan tashkilotda investorning ulushi e'tiborga olinadi. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar balans qiymatining vaqtincha pasayishi hisobda aks ettirilmaydi. Moliyaviy investitsiyalar qiymati pasayishining boshqa hollari mazkur BHMSning 21-bandiga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobini yuritish xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion siyosatini samarali amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ularni to'g'ri tasniflash, baholash va moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirish korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi hamda investorlar ishonchini oshiradi.

Amaldagi normativ-huquqiy baza, jumladan, Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun moliyaviy hisobotning ishonchliligi, taqqoslanishi va shaffofligini ta'minlashni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Xalqaro amaliyotda esa moliyaviy instrumentlar hisobi IFRS 9 talablari asosida risklarni baholash, amortizatsiyalangan qiymat va adolatli qiymat konsepsiyalarini qo'llash orqali yanada mukammal tartibga solingan. Mazkur yondashuv investitsion faoliyat natijalarini real iqtisodiy mazmuniga yaqinlashtirish imkonini beradi. Shu bois uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1). O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 13.04.2016 y.
- 2). O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) to'plami. – Toshkent, 2024.
- 2). O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) to'plami. – Toshkent, 2024.
- 3). International Accounting Standards Board. IFRS 9 Financial Instruments. – London, so'nggi tahrir.

4). O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 18.07.2024 yilda №3531-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-sonli BHMS) “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish”ni tasdiqlash haqidagi buyrug‘i.

5). www.imv.uz. sayti